

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MODELI

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN FUTURE PEDAGOGUES

Abdujabborov Abduxalim Abdug'appon o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: *Maqolada analitik tafakkur, uni rivojlantirish modeli tahlil qilingan hamda tashkil etish bosqishlari va pedagogik jihatlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *analitik tafakkur, metodologik ta'minot, meyoriy-huquqiy ta'minot, amaliy-tatbiqiy (empirik) funktsiya, aksiologik, mezon.*

Аннотация: *В статье анализируется аналитическое мышление, модель его развития, на ней основаны организационные этапы и педагогические аспекты.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, методическое обеспечение, нормативно-правовое обеспечение, практико-прикладная (эмпирическая) функция, аксиологическая, критерий.*

Abstract: *Analytical thinking, the model of its development is analyzed in the article, and organizational steps and pedagogical aspects are based on it.*

Key words: *analytical thinking, methodological support, regulatory and legal support, practical-applied (empirical) function, axiological, criterion.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida teran tafakkurga va kuchli ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tarbiyalash har bir jamiyat barqaror rivojlanishining muhim garovidir.

Mamlakatimizda ham salohiyatli oliy ta'lim muasasalariga va ularda yetishib chiqadigan yangicha dunyoqarashga ega raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning samradorligini baholash va mavjud holatdagi kamchiliklarni aniqlash orqali yangicha yondashuvlarni olib kirish, modernizatsiyalash ishlarini amalga oshirish muhim pedagogik talablardandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqot doirasida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish modelni ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi. Modelning mazkur turi bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonini boshqarish vositalarini izlab topish, shuningdek, V.A.Slasteninining fikricha, model subyekti sifatida talabalarning

tayyorgarlik darajasining boshlang'ich va yakuniy holati o'rtasidagi farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi.

Bizning tadqiqotimizda modellashtirish obyekti sifatida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayoni, predmetini esa, ularda analitik tafakkurni rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Talab etilayotgan pedagogik tizimni modellashtirishda quyidagi funksiyalarning bajarilishi ko'zda tutildi:

- metodologik ta'minot funksiyasi. Mazkur funktsiyani amalga oshirish meyoriy-huquqiy hujjatlar va bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq;

- meyoriy-huquqiy ta'minot funksiyasi. Mazkur funktsiya bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga doir faoliyat jalb etish tamoyillari, mazmuni, vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik vositalarini aniqlashni taqozo etadi;

- metodik ta'minot funksiyasi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodik (mazmuni, shakl, metod va vositalari) shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi;

- amaliy-tatbiqiy (yempirik) funktsiya. Mazkur funktsiya qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga doir bilim va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish va h.k.

Tadqiq etilayotgan jarayonni modellashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida quyidagi qoidalarga tayanildi:

tizimli, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv yondashuvlar;

pedagogik loyihalash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish;

didaktik va metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslari;

aksiologik yo'nalganlikni shakllantirish va fuqarolik tarbiyasi konsepsiyasi;

analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning modeli maqsadga yo'naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunga doir, tashkiliy va natijaviylik komponentlarini o'zida aks ettirdi [6].

Maqsadga yo'naltirilgan blok bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun etakchi rol o'ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, meyoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Analitik tafakkurni rivojlantirishga doir ta'lim standartlari va meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlili bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni maqbullashtirish lozimligini ko'rsatdi.

Tizimning maqsadga yo'nalganligi ma'lum natijalarga erishish bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlashtirish ishlab chiqilayotgan tizim javob berishi lozim bo'lgan bir qator savollarga e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun mazkur jarayonning yakuniy natijasi aniq aks ettirilishi lozim [4].

Modelning maqsadi bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish tarzida aniqlashtirildi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi:

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;

modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish;

model blok va elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish;

modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalari kompleks metodologik yondashuvlar bilan bog'liq.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda yangicha o'qitish metodikasini tashkil etish va ta'lim standartlarini bajarish uchun o'qituvchi-pedagoglar oldiga:

darsning maqsadi va mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish;

dars jarayonini to'g'ri va aniq manbalarga asoslanib tashkil etish;

mavzuni o'zlashtirish va o'rgatish nuqtayi nazaridan pedagogik faoliyatga ega bo'lish;

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, mazkur jarayonda ularni ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, talabalarning subektivligini oshirish hisobiga subekt-obekt munosabatlaridan subekt-subekt munosabatlariga o'tish, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil yetish, shuningdek, ularning mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish zaruriyati belgilandi [2].

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlanganlik darajasi quyidaga mezonlar (past, o'rta, yuqori) asosida aniqlanildi.

Ushbu mezonlar asosida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlanganlik holatini aniqlashga yordam beradi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda loyihali ta'lim yuqori samaradorlikni namoyon qiladi. Loyihalar metodida berilgan pedagogik maqsadlar ilmiy yoki amaliy muammolar detallarini ishlab chiqish usuli hisoblanadi. Bu jarayon yakunida konkret va real natija aniqlanadi. Bundan tashqari, bu metod o'zida

turli boshqa metodlar: izlanish, muammoli, ijodiy metodlarni mujassamlashtiradi. Pedagog bu jarayonda ishlab chiquvchi, boshqaruvchi, ekspert, konsultant vazifalarini bajaradi.

Bunday vazifalarning barchasi tafakkur qilish va munozara yuritish, muloqot qilish jarayonida amalga oshadi. Bo'lajak pedagoglar ilmiy muammolar to'g'risida ko'proq munozaralar, debatlar, ochiq muhokamalar jarayonida o'zaro fikr almashishlari juda samarali hisoblanadi.

Ularning ongida ilmiy hodisalar va axborotlar mustahkam o'rnashadi va o'z nuqtai nazarini mantiqiy jihatdan to'la ishonch bilan asoslashga o'rganadilar, analitik tafakkuri barqarorlashadi, chunki mustaqil o'zlashtirilgan bilimlar ijtimoiy jihatdan yo'naltiriladi.

Mazkur jarayon oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi: bo'lajak pedagoglarda o'z nuqtai nazarini ilmiy jihatdan to'la asoslash ko'nikmasini hosil qilish; o'zlari bayon qilgan barcha xulosalarning mantiqiy jihatdan asoslanganligi va ziddiyatlarga ega emasligiga ularni ishontirish kabilar [4].

Analitik tafakkur tarzi bo'lajak pedagoglardan yangi o'zlashtirgan ilmiy bilimlarini mavjud bilimlari bilan taqqoslab borishi, analiz va sintez qilish va uyg'unlashtirishlari talab etiladi. Bu esa ularda tanqidiy fikrlashni, axborotlarga mustaqil yondashuvni shakllantiradi va izlanuvchanlikni oshiradi. Natijada, ularning mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyorlik darajalari ortadi. Ularda mustaqillik, mas'uliyatlilik, muloqotga kirishuvchanlik, faollik, maqsadga intiluvchanlik, ishchanlik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik sifatleri tarkib topadi.

XULOSA. Fikrimizcha, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bunday imkoniyatlar kontekstli va loyihaviy ta'lim texnologiyalari asosida rivojlanadi. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglarning ta'lim olishdagi ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari tubdan o'zgarib ketadi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda asosiy e'tibor ularning ilmiy-pedagogik ongini shakllantirish va yangicha fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini tasnifiy belgilari o'quv tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlar jarayonida talabalar dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkurini insonparvarlashtirish g'oyalari bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кинелев В.Г. Университетское образование: его настоящее и будущее / В.Г. Кинелев // ZMagister. 1995. № 3. С. 1–9.
2. Когнитивный подход: Монография. Отв. ред. Лекторский В.А. М. Канон, Реабилитация, 2008. –С. 464.

3. Национальная модель и программа по подготовке кадров-достижение и результат независимого Узбекистана.-Ташкент:Маърифат-Мададкор, 2001.- С.174-189.
4. Орехов А.М. Интеллектуальная собственность. Опыт социально-философского и социально-теоретического исследования. – М.: Либроком, 2009. – С. 224.
5. Хакимов Н.Х. Узбекистан: стратегические направления и перспективы развития. Монография. – Тошкент: 2017. –С. 262.
6. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004, -Б. 54.
7. Философский энциклопедический словарь. - Москва: ИНФРА-М, 1999. – С.253.